

**“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

UROZOV MUSTAFOKUL KULTURAYEVICH

**JUN TOLASINI TOZALASH ASOSIDA NOTO‘QIMA MATERIAL OLISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Contents of the Abstract of Doctoral Dissertation

Urozov Mustafokul Kulturayevich

Jun tolasini tozalash asosida noto‘qima material olish texnologiyasini takomillashtirish 3

Урозов Мустафокул Култураевич

Совершенствование технологии получения нетканого материала на основе очистки шерстяного волокна..... 31

Urozov Mustafokul Kulturaevich

Improving the technology for producing nonwoven material based on purified wool fiber..... 61

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 64

**“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

UROZOV MUSTAFOKUL KULTURAYEVICH

**JUN TOLASINI TOZALASH ASOSIDA NOTO‘QIMA MATERIAL OLISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc /T438 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) "Paxtasanoat ilmiy markaz" AJ huzuridagi ilmiy Kengash web-sahifasida (www.paxtasanoatilm.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Jumaniyazov Qadam
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Avazov Komiljon Raxmatovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yuldashev Jamshid Qambaraliyevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Qayumov Juramirza Abdirammatovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Etakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi "Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati huzuridagi DSc.30/30.11.2021.T.141.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "27" iyun soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100070, Toshkent sh., Shota Rustaveli ko'chasi, 8-uy. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz. ("Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati binosi, 3-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan "Paxtasanoat ilmiy markazi" aksiyadorlik jamiyati Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100070, Toshkent sh., Shota Rustaveli ko'chasi, 8-uy. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2024- yil "19" iyun kuni tarqatildi.
(2024- yil "19" iyun № 27 raqamli reestr bayonnomasi).



T.M. Quliyev
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

M.R. Mo'minov
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., k.i.x.

R.K. Djamolov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tabiiy jun tolasini fizik mexanik usulda qayta ishlash va qimmatbaho mahsulot olish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida jun tolasini tayyorlashning asosiy qismi Avstraliya, AQSh, Xitoy, Argentina, Eron, Rossiya, Qozog‘iston va Yevropa mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Jundan sifatli tola olishda tarkibidagi mayda va yirik ifloslikdan samarali tozalash orqali qimmatbaho mahsulot ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan rivojlangan davlatlarda junni qayta ishlash va turli materiallar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari qo‘llanilib kelinmoqda. Jun tarmog‘ida ishlab chiqarish hajmini oshirish va xalqaro standartlarga javob beradigan texnologiyalar asosida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda jun tolasidan olinadigan mahsulot hajmini oshirish, raqobatbardosh hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, samaradorligi yuqori bo‘lgan jihozlarni o‘rnatish, mavjudlarini esa modernizatsiya qilish, uskunalarni takomillashtirish, asosiysi resurstejamkor texnologiyalarni yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada jun tarkibidagi mayda va yirik iflosliklarni tozalash, energiya va resurstejamkor uskunalarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda jun sanoatining iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun qator imkoniyatlar va omillari mavjud bo‘lib, mahalliy jun tolasini qayta ishlash orqali import o‘rnini bosa oladigan sifatli tola va uning asosida noto‘qima materiallar ishlab chiqish, yuqori samarali texnika hamda texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-60-son farmonida “Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish orqali 2026-yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek, to‘qimachilik mahsulotlari hajmini 2 baravarga ko‘paytirish”¹ bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, chorvachilik tarmog‘i hisoblangan jun, teri va qorako‘lchilik sohaslarini rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot hajmini oshirish va ularning turlarini kengaytirish, yoshlarni ish bilan ta‘minlash, aholiga sifatli va arzon mahsulotlarni uzliksiz yetkazib beradigan korxonalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, 2021-yil 8-iyuldagi “Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5178 son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli qarorlari hamda mazkun faoliyatga tegishli boshqa

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. «Energetika, energiya va resurs tejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Jahonda tabiiy jun tolasini fizik mexanik usulda qayta ishlash va qimmatbaho mahsulot olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida jun tolasini Avstraliya, AQSh, Xitoy, Argentina, Eron, Rossiya. Qozog'iston va Yevropa mamlakatlari katta qismini yetishtiradi. Jundan sifatli tola olishda tarkibidagi mayda va yirik ifloslikdan samarali tozalash orqali qimmatbaho mahsulot ishlab chiqarishga erishish mumkin. Rossiyaning "OOO KardMach" korxonasi jun tolasini qayta ishlash va jun tarkibidagi yengil aralashmalarni tozalashga ixtisoslashgan.

Belorussiyaning "ASO-100" rusumli uskuna jun tolasini yirik ifloslikdan tozalaydi. Germaniyada junni dastlabki ishlash uskunalari «Sharpante» korxonalarida ishlab chiqaradi. Rossiyaning 2BT, 2BT-150-Sh, AV-8V, TP-90-Sh1 rusumli titish-tozalash uskunalari jun tolasini samarali titadi va tozalaydi. 2BT rusumli titish uskunasi ham titish va savash jarayonlari amalga oshiriladi.

Jun tolasini yuvilgandan so'ng yana saralanadi va tarkibida qiyin ajraluvchi o'simlik aralashmalari qolib ketadi. O'simlik aralashmalari O-120-ShM2 rusumli tozalash mashinasida tozalanadi.

Xitoyning ZKA-720 junni tozalash uskunasi va Tongshengjia Fb1268 uskunasi, Zhengzhou Shuliy Machinery korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Shvetsariyaning SN-WDL markali uskunasi noto'qima mato ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Rivojlangan davlatlarda junni qayta ishlash va turli materiallar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari qo'llanib kelinmoqda. Jun tarmog'ida ishlab chiqarish hajmini oshirish va xalqaro standartlarga javob beradigan texnologiyalar asosida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jun tolasini mexanik qayta ishlash uchun uskunani takomillashtirgan

Ushbu uskunadan foydalanish jun tolasining sifatini saqlab qolgan holda junni tozalash va titish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Tolaga yopishgan iflosliklar qattiq bo'laklardan iborat bo'lib, uning maksimal hajmi 8 sm gacha yetadi. Jun tolasiga (8 sm gacha) yopishgan iflos aralashmalarini samarali maydalash va ajratish bilan rotorli kaltaklarning kuchli ta'siri tufayli tolaga sezilarli darajada zarar yetkazadi, bu esa jun tolasini umumiy uzunligining qisqarishi, tola sifatining yomonlashishi va vazn yo'qolishining oshishiga olib keladi. Bu qurilmada bartaraf qilingan texnik muammo jun tolasining sifatini saqlab, uning massa yo'qolishini kamaytirgan holda ifloslangan junni tozalash va yumshatish samaradorligini oshirishdan iborat.

² № 1117, №66U-2013-sonli ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha hisobotlar, "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, Toshkent 2012-2013 yy. <http://jubus.com>, www.petkus.com, <https://www.researchgate.net/publication/280971045>

Jahonda jun tolasidan olinadigan mahsulot hajmini oshirish, raqobatbardosh hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish samaradorligi yuqori bo'lgan jihozlarni o'rnatish, mavjudlarini esa modernizatsiya qilish, uskunalarni takomillashtirish asosiysi resurstejamkor texnologiyalarni yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jun tarkibidagi yirik va mayda iflosliklarni sifatli tozalash, uskunalarni ishlab chiqarish hamda texnologik jarayonni, ish rejimini asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Jun tolasini qayta ishlash va undan turli xildagi materiallar olish, junni dastlabki titish tozalash, yuvish va yakuniy pardozlash texnologiyalari bo'yicha xorijda V. Chris, Sepehr Moradi, Huan Qingsong, A.Kremensas, S.Vaitkus, A.Kairyte, T.S.Novorodovskaya, S.F.Sadova, Yu.G.Saribekova, O.Ya.Semeshko, A.V.Ermoleva, V.I.Sidorov, R.R.Yamanova, K.E.Razumeev, A.F.Plexanov, Ye.I.Bitus, V.E.Gusev, A.N. Kunik va boshqa olimlar shug'ullanishgan.

Junni qayta ishlash texnologiyasi, yigirish texnologiyasi, jun asosidagi noto'qima matolar olish, bo'yash, gul bosish jarayonlari borasida ilmiy tadqiqotlar Q.G'afurov, Q.Jumaniyozov, Sh.Xakimov, M.Abdukarimova, I.A.Nabieva, S.M.Elmonov, S.A.Yusupov, A.L.Xamraev, J.A.Qayumov, M.A.Nazarova va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Jun tolasini fizik mexanik usulda qayta ishlash, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, jun asosida noto'qima matoning turlarini yaratish, ularning fizik kimyoviy xossalarni yaxshilash texnologiyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasining 2021-yil 14-iyuldagi 02-RA 1-9900-son bayonnomasi 148-bandiga asosan "Chorvachilikda yetishtiriladigan dag'al junlarni kimyoviy va mexanik qayta ishlash orqali to'qimachilik sanoati uchun sifatli mayin ip ishlab chiqarish" (2021-2022) mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. Mahalliy dag'al jun tolasini mexanik kimyoviy tozalash texnologik jarayonini takomillashtirish va fizik kimyoviy xossalari yaxshilangan jun tolasidan texnik jihatdan sifatli noto'qima mato turlarini olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- mahalliy jun tolalarning xossalarni tadqiq qilish;
- mahalliy jun tolasini titish tozalash va turli xil iflosliklardan samarali tozalash;
- titish tozalash jarayonida jun sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
- kimyoviy usulda yuvish va jun tarkibidagi yog'simon va mumsimon moddalardan tozalash;
- yuvish vannasidagi kimyoviy moddalar konsentratsiyasi, harorat va vaqtning jun tolasiga ta'sirini aniqlash;
- mahalliy xomashyo asosida turli xil qalinlikda noto'qima mato olish texnologiyasini ishlab chiqish;

olingan noto'qima matoning fizik kimyoviy xossalarini o'rganish;
noto'qima matolarining yuqori elastik, qayishoqligi va deformatsiyasini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti. Kuz va bahor mavsumlarida qirqib olinadigan mahalliy qo'y junlari ilmiy tadqiqotning obyekti sifatida tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti dag'al qo'y junini titish-tozalash, yuvish hamda undan texnik jihatdan sifatli bo'lgan noto'qima materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mahalliy jun tolasidan olingan noto'qima materiallarning tuzilishi, qalinligini aniqlash (TF-121), ishqalanishga chidamliligini (M 235/3), havo o'tkazuvchanlik (AR-360SM) xossalarini tahlil qilish, matematik tahlil usullaridan, eksperimental ma'lumotlarni rejalashtirish, statik va dinamik modellashtirish, ko'p omilli tajriba, tajriba natijalarini qayta ishlash, o'lchash, taqqoslash, baholashdan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

titish-tozalash uskunasiga qo'shimcha sifatida ta'minlovchi valik, qiya holatda xomashyo bunkerini o'rnatish hisobiga jun tolasining bir xil miqdorda qoziqchali barabanga uzatilishi va yuqori ish unumdorligiga erishishi aniqlangan;

jun tolalari ta'minlovchi valiklar yordamida uzatilishi bir vaqtning o'zida valiklarning burchak tezliklariga, o'rnatilgan tebranuvchi xomashyo bunkeriga hamda barabandagi qoziqchalar soniga bog'liqligi matematik modellashtirish usuli bilan aniqlangan;

titish-tozalash uskunasining barabaniga qo'shimcha qoziqchalar o'rnatish hisobiga jun tolasini mayda va yirik ifloslikdan tozalash samaradorligi ortganligi aniqlangan;

tozalangan mahalliy jun tolalari asosida yangi turdagi noto'qima matolar olish texnologiyasi ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan va ishqalanishga chidamli, havo o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan yangi turdagi noto'qima mato ishlab chiqilgan;

jun tolasining ingichkaligi, qalinligi va shtapel uzunligi noto'qima matoning sifatiga ta'siri va noto'qima matoning qayishqoqligi hamda elastik deformatsiyasi aniqlangan;

titish tozalash uskunasidan jun tolalarini yuvish vannasiga to'g'ridan to'g'ri tashlab berish natijasida iqtisodiy jihatdan resurstejamkor texnologiya ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

titish-tozalash uskunasiga qo'shimcha sifatida qiya shakldagi xomashyo bunkerini va ta'minlash mexanizmi o'rnatilgan bo'lib tola oqimi bir tekisda uzatilishi ta'minlangan;

barabandagi qoziqchalar sonini 8 qatordan 12 qatorga o'zgartirilgan bo'lib, dag'al jun tolasining titilganlik va tozalanganlik darajasi 18-20 % oshishiga erishilgan;

titish tozalash jarayonida tola sifatiga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri tajribalar o'tkazish bilan aniqlangan;

mahalliy dag'al jun tolalari asosida yangi turdagi noto'qima matolar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, noto'qima matoning ishqalanishga chidamliligi, havo o'tkazuvchanligi xossalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan yangi turdagi noto'qima matolarning sifat ko'rsatkichlari dissertatsiyada shakllantirilgan ilmiy holatlar, prinsiplar, xulosalar va tavsiyalar, nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarining bir-biriga mos kelishi, aprobatsiya va joriy qilinishidagi ijobiy natijalar, shuningdek, natijalarni solishtirish, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dag'al jun tolalari mayda va yirik iflosliklardan sifatli tozalangan hamda jun asosida olingan yangi turdagi noto'qima materialning texnologik jarayonlar takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomshayo asosida yangi turdagi noto'qima matolar olishning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilgan va noto'qima matoning qayishqoqligi havo o'tkazuvchanligi va deformatsiyasining nazariy tahlili bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jun tolasini samarali tozalash texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

jun tarkibidagi mayda va yirik iflosliklardan tozalash texnologiyasi Oltinsoy tumanidagi "Xisora mayin jun" MChJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy qilingan. ("O'zcharsanoat" uyushmasining 2024-yil 2-apreldagi № FN 7/10/35-sonli ma'lumotnomasi) Natijada mahalliy dag'al jun tarkibidagi mayda yirik iflosliklar 18% gacha tozalanib, texnik jihatdan sifatli bo'lgan tola ishlab chiqarilgan.

tozalangan jun tolasini asosida noto'qima matolar olish texnologiyasi "Jizzax jun" MChJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy qilingan ("O'zcharsanoat" uyushmasining 2024-yil 2-apreldagi № FN 7/10/35-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mahalliy dag'al jun tolasini asosida ishqalanishga chidamli va havo o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan 3 xil qalinlikda noto'qima matolar olingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 12 ta ilmiy - amaliy konferensiyalarda, shu jumladan, 7 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy konferensiyalarida va 2 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, 3 ta xorijiy jurnallarida maqolalar chop etilgan. Intellektual mulk agentligi tomonidan 2 ta dasturiy ta'minot uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 212 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishini

ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Jun tolasining tavsiflari, iflosliklardan tozalash tadqiqotlari va jundan noto‘qima mato olish texnologiyalari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida Respublikamizda boqiladigan qo‘y zotlari ulardan olinadigan jun va noto‘qima matolarning texnik ko‘rsatkichlari, junni iflosliklardan tozalash texnikalarining qisqacha analitik sharxi bayon qilingan. Quyidagi 1-jadvalda qo‘y zotlari va ulardan olinadigan junning miqdori va sifat ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

Jun tolasining sifat ko‘rsatkichlari

Qo‘y zotlari	Jun turi	Og‘irligi, kg	Uzunligi, mm	Rangi	Ishlatilish sohasi
1	2	3	4	5	6
Qorako‘l	Yarim mayin dag‘al	1,6-2,2 kg	9-16	oq qora jigarang	Gilam, kigiz
Jaydari	Dag‘al	2,2-2,7 kg	8-17	oq qora jigarang, qizil, ko‘k	noto‘qima matolar boshqalar
Hisori jun	Dag‘al	0,9-1,4 kg	7-9	har xil	noto‘qima matolar

Jun tolasini dastlabki ishlash jarayonida birinchi keltirilgan jun ranglari (runo) bo‘yicha saralanadi. Saralash jarayoni muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni tiplarga ajratish lozim. Junni dastlabki ishlash jarayonini reglament asosida tashkil qilish sifatli jun tolasini tayyorlash bilan bog‘liqdir


Dissertatsiya ishining **“Jun tolasini mayda, yirik iflosliklardan mexanik va kimyoviy usulda takomillashtirilgan tozalash uskunasi ishlab chiqish”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida jun tolasini mayda va yirik iflosliklardan mexanik va kimyoviy usulda tozalash texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha texnik yechimlar bayoni keltirilgan.

Jun tolasini, asosan, 2 xil usulda tozalanadi: mexanik va kimyoviy usullarda. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi jun tolasini qayta ishlash korxonalarida, asosan, 2BT rusumidagi titish-tozalash uskunasi ishlatilmoqda (1-rasm). 2BT titish-tozalash uskunasi ishlab chiqarish prinsipi quyidagicha: yuvilmagan jun tolasini bir xil qalinlikda ta‘minlash tasmasi 2 ga tashlaydi. Tasma 0,067-0,133 m/s tezliklarda harakatlanadi. Ta‘minlash valigi 9 (yuqorigi-riflali, pastki-silliq) diametri Ø-125 mm bo‘lib, jun tolasini mahkam siqadi va titish-tozalash kamerasiga uzatadi. Ta‘minlash valiklarining siqilishini bir juft prujina 3 bilan hosil qiladi va uning siqish kuchi 1,75 kN ga teng.

Yuqoridagi valik jun bo‘laklarini siljishi va rostlanishini ta‘minlab, pastki valikka nisbatan tezroq aylanadi. Birinchi baraban 10 12,5 m/s tezlikda, ikkinchi baraban 13 esa 14,3 m/s tezlikda aylanadi. Ta‘minlash valigi siqilgan jun bo‘lakchalarini birinchi


qoziqchali barabanga uzatadi. Qoziqchali baraban jun bo‘lakchalarini kolosnikli panjara 11 ustidan olib o‘tib, ikkinchi barabanga uzatadi.

Ikkinchi baraban jun tolasini titib, iflos aralashmalardan tozalaydi. Jun tutamidan ajralgan ifloslik kolosnikli panjara tirqishlaridan ifloslik bunkeri 3 ga tushadi, so‘ngra transportyor yordamida uskuna ostidan chiqarib yuboriladi. Baraban qoziqlari jun bo‘laklari 15 ga urilishi titish jarayonini jadallashtiradi. Jun tolasini titish va tozalashdan so‘ng barabanning markazdan qochma kuchi tezligini yo‘naltirgich 14 so‘ndiradi va uchib chiqish traektoriyasini o‘zgartiradi.



1-rasm. 2BT markali titish agregati sxemasi


Birinchi barabandan ikkinchisiga o‘tishda jun tutamining ayrim qismlari qo‘zg‘almas qoziq 12 da ushlanib qoladi, qoziq bilan ikkinchi baraban ta’siri natijasida jun qo‘shimcha titiladi. 2BT-150-Sh titish-tozalash uskunasining kinematik sxemasi asosida ish unumdorligi aniqlanadi. Korxonalarda ishlatilayotgan 2BT-150-Sh titish-tozalash uskunasining ta’minlash mexanizmi ayrim kamchiliklar uskunasining ish unumdorligiga, tola sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va iqtisodiy samaradorlikning sezilarli darajada pasayishiga sabab bo‘lishi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Takomillashtirilgan qiya bunkerli va qo‘shimcha valikli tozalagich mexanizm sxemasi

Tadqiqotlar natijasida ta’minlash mexanizmining bir nechta turlari o‘rganildi. Ta’minlash mexanizmining o‘rnatish usullari, afzalligi va kamchiligi o‘rganilib, yakunida qiya holatdagi bunker tanlab olindi. Ta’minlovchi mexanizmiga diametri ikki baravarga teng qo‘shimcha valiklar uskunaga nisbatan 35° gradus qiyalikda o‘rnatildi. diametri ikki marta kattalashganini evaziga tolani oqimi tezligi samarali tarzda oshgan. Tadqiqotlarni o‘tkazish uchun titish tozalash uskunasining ta’minlash mexanizmlari takomillashtirildi (3-rasm).

Takomillashtirilgan ta'minlash mexanizmi (3-rasm) quyidagi ketma-ketlikda jun tolasini qabul qiladi va qoziqchali barabanga tashlab beradi. Saralangan jun tolasini tezligi 0,067-0,133 m/s bo'lgan ta'minlovchi transportyor 1 yordamida tola kirish novi 3 orqali xomashyo bunkerini 6 ga tushadi. Ta'minlovchi transportyor lentasining uzunligi 900-1200 mm, eni 1000 mm.



3-rasm. Takomillashtirilgan ta'minlash mexanizmi

1-ta'minlovchi transportyor; 2-yetaklovchi rolik; 3-tola kirish novi; 4-mahkamlash brusi; 5-tebranuvchi panjara; 6-xomashyo bunkerini; 7-ta'minlash valigi; 8-qistirma; 9-val; 10-ta'minlovchi riflali silindr; 11-silliq yuzali silindr; 12-o'q; 13-prujina; 14-korpus qismi.


Bunker asosi, ya'ni tebranuvchi xomashyo bunkerini 6 asosi to'rtli panjara 5 dan yasalgan, bunkeriga tushayotgan jun tolasini tebranma harakat qilib yengil organik va mineral aralashmalardan tozalanadi. Bunkeridagi tola ta'minlash valiklarining 7 plankali tishlari yordamida silliq yuzali valik 11 va kichkina valik 10 ga uzatiladi. Jun tolasini tarkibidagi iflosliklardan hosil bo'lgan mayda va yirik aralashmalar prujina 13 va o'q 12 yordamida harakatga kelib rostlanuvchi silliq yuzali valik yordamida bosiladi va ishchi kameraga tashlab beradi.

Dissertatsiyaning "**Jun tolasini mayda va yirik iflosliklardan tozalashning nazariy asoslari**" deb nomlanuvchi uchinchi bobida jun tolasini tarkibidagi iflosliklarni mexanik va kimyoviy tozalashning nazariy o'rganish natijalari keltirilgan.

Qoziqchali barabanlarning asosiy vazifasi jun tolasini titish va tozalashdan iborat. Junni titish-tozalash uskunasi ta'minlovchi mexanizmi takomillashtirilishi orqali tola uzatish me'yori yaxshilandi va uskunani ish unumdorligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Yengil ifloslik aralashmalarni tozalashda va A nuqtadan ma'lum V_a^u boshlang'ich tezlik bilan qiya tekislikda tebranma harakat holda B nuqtaga yetib borishi, so'ngra xomashyo bunkeriga uzatilishi kerak. Po'lat listdan tayyorlangan panjara tebranma harakat qilib jundagi mayda iflosliklarni ajratadi.

Buning natijasida jundagi mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi oshishini qiya tekislik bo'ylab haraktlanayotgan junga ta'sir qilayotgan tashqi kuchlar ta'siridagi harakat qonuniyatlarini aniqlaymiz. Ularning sxemasi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm Qiya yuza bo‘ylab harakatlanayotgan jun va iflos aralashmalarga ta’sir etuvchi kuchlar sxemasi

Buning uchun ularga ta’sir etuvchi kuchlarni ko‘rib chiqamiz.

Jun va iflosliklarning AB masofadagi harakatini OX o‘qiga nisbatan differensial tenglamasi quyidagicha tuziladi.

$$m\ddot{y} = N - k_1 \cdot \vartheta - c \cdot v \quad (1)$$

$N = m \cdot g \cdot \cos \beta$ ga tengligidan

$$m\ddot{y} + k_1 \dot{y} + cy = 0 \quad (2)$$

hosil qilamiz

$$\ddot{y} + \frac{k_1}{m} \dot{y} + \frac{c}{m} y = 0$$

$$\frac{k_1}{m} = 2n, \quad \frac{c}{m} = k^2 \text{ belgilashlar kiritamiz}$$

bu erda k_1 – qarshilik koeffitsienti; m -jun bo‘lakchasining massasi; s –titrashdagi birlik koeffitsienti.

$$\ddot{y} + 2n\dot{y} + k^2 y = 0$$

$$y = e^{\lambda t}; \quad \dot{y} = \lambda e^{\lambda t}; \quad \ddot{y} = \lambda^2 e^{\lambda t}$$

natijada $\lambda^2 + 2n\lambda + k^2 = 0$

$$\lambda_{1/2} = -n \pm \sqrt{n^2 - k^2}$$

umumiy yechimini quyidagicha ifodalaymiz

$$y = e^{-nt} \left(c_1 \cos \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t + c_2 \sin \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t \right) \quad (3)$$

(3) tenglamadan s_1 va s_2 o‘zgarmas qiymatlarni aniqlash uchun boshlang‘ich va chegaraviy qiymatlardan foydalanamiz

$$\begin{aligned} \dot{y} = e^{-nt} \left(-c_1 \sqrt{k^2 - n^2} \sin \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t + c_2 \sqrt{k^2 - n^2} \cos \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t \right) - \\ - ne^{-nt} \left(-c_1 \cos \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t + c_2 \sin \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t \right) \end{aligned} \quad (4)$$

$t = 0$ $y = y_0$ shartdan (2) tenglamadan s_1 o‘zgarmaslarni aniqlaymiz

$$y_0 = c_1$$

$t = 0$ $\dot{y} = \dot{y}_0$ shartdan (3) tenglamadan s_2 o‘zgarmaslarni aniqlaymiz

$$\dot{y}_0 = c_2 \sqrt{k^2 - n^2} - ny_0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow c_2 = \frac{v_0 + ny_0}{\sqrt{k^2 - n^2}}$$

aniqlangan S_1 va S_2 o'zgarmas qiymatlarni (3) tenglamaga qo'yamiz

$$y = e^{-nt} \left(y_0 \cos \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t + \frac{v_0 + n \cdot y_0}{\sqrt{k^2 - n^2}} \sin \sqrt{k^2 - n^2} \cdot t \right) \quad (5)$$

$$y_0 = A \sin \beta, \quad \frac{\dot{y}_0 + ny_0}{\sqrt{k^2 - n^2}} = A \cos \beta$$

belgilanish kiritamiz y_0 -dastlabki masofa, \dot{y}_0 -boshlang'ich tezligi, β - po'lat listning qiyalik burchagi.

$$A^2 \sin^2 \beta + A^2 \cos^2 \beta = y_0^2 + \frac{(\dot{y}_0 + ny_0)^2}{k^2 - n^2}$$


$$A = \sqrt{y_0^2 + \frac{(\dot{y}_0 + ny_0)^2}{k^2 - n^2}} \quad (6)$$

$$\operatorname{tg} \beta = \frac{y_0 \sqrt{k^2 - n^2}}{\dot{y}_0 + ny_0}$$


$$\beta = \operatorname{arctg} \frac{y_0 \sqrt{k^2 - n^2}}{\dot{y}_0 + ny_0} \quad (7)$$

u holda (7) tenglama quyidagi ko'rinishda hosil qilamiz

$$y = Ae^{-nt} \sin \left(\sqrt{k^2 - n^2} t + \beta \right) \quad (8)$$



5-rasm. Jun oqimining qiya listda OY o'qi bo'ylab titrashdagi harakati amplitudasining turli xil $A_1 = 0,9$ $A_3 = 0,5$ qiymatlarida vaqtga bog'liqlik grafigi



6-rasm. Jun oqimining qiya listda OY o'qi bo'ylab titrashdagi harakatida amplitudasining turli xil $A_1 = 0,9$ $A_3 = 0,5$ qiymatlarida vaqtga bog'liqlik grafigi (1-jun, 2- yengil ifloslik)

Quyidagi 5 va 6-rasmlardagi grafiklar tahlilidan junning qiya panjara yuzasi ustida harakatini junga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar ta'siridagi traektoriyalari keltirilgan. Panjara tebranma harakat qilib, jundagi mayda iflosliklardan ajratishda tebranish amplitudasining $A_3 = 0,5$ mm qiymatida hamda qiyalik burchagining $\beta_2 = 35^\circ$ gradus qiymatlarida jundan yengil iflosliklarni ajralishini ko'rishimiz mumkin. Qiya tekislikdagi junning harakatidan junning massasidan yengil ifloslik massasini ajralishini titrashdagi amplitudasi ta'siridagi grafigini ko'rishimiz mumkin

massasi juda kichik yengil iflosliklarni jundan ajralishda qiyalik burchagi va amplitudasi muhim ahamiyatga ega.

Junning oqimini uzatishda OX o'qi bo'ylab harakat differensial tenglamasini tuzamiz $F_{uu} = f \cdot N = f \cdot m \cdot g \cdot \sin \beta$

$$m\ddot{x} = -k \cdot g_x - F_{uu}$$

$$m\ddot{x} + kx = f \cdot m \cdot g \cdot \sin \beta \quad (9)$$

(9) tenglama ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani x_1 -umumiy yechimi bilan x_2 -xususiy yechimlarning yig'indisidan iborat.

$$x = x_1 + x_2$$

Umumiy yechimni quyidagicha ko'rinishda izlaymiz

$$x_1 = c_1 e^{\lambda_1 t} + c_2 e^{\lambda_2 t} \quad (10)$$

$$x = e^{\lambda t} \quad \dot{x} = \lambda e^{\lambda t} \quad \ddot{x} = \lambda^2 e^{\lambda t}$$

$$m\lambda^2 + k\lambda = 0$$

bundan

$\lambda_1 = 0$; $\lambda_2 = -\frac{k}{m}$ aniqlangan qiymatlarni (9) tenglamaga qo'yamiz

$$x_1 = c_1 + c_2 e^{-\frac{k}{m}t}$$

Xususiy yechimini esa quyidagi ko'rinishda izlaymiz

$$x_2 = M \sin \beta + N \cos \beta \quad (11)$$

(11) tenglamani (8) tenglikga qo'yib M va N ning qiymatlarini aniqlaymiz

$$\dot{x}_2 = M \cdot \cos \beta - N \cdot \sin \beta; \quad \ddot{x}_2 = -M \cdot \sin \beta - N \cdot \cos \beta$$

$$-m \cdot M \cdot \sin \beta - m \cdot N \cdot \cos \beta + k \cdot M \cdot \cos \beta - k \cdot N \cdot \sin \beta = f \cdot g \cdot \sin \beta$$

$$\begin{cases} -m \cdot M - k \cdot N = f \cdot g \\ -m \cdot N + k \cdot M = 0 \end{cases}$$

$$\Delta = \begin{vmatrix} -m & -k \\ -k & -m \end{vmatrix} = m^2 + k^2$$

$$\Delta_M = \begin{vmatrix} f \cdot g & -k \\ k & 0 \end{vmatrix} = k^2$$

$$\Delta_N = \begin{vmatrix} -m & -f \cdot g \\ k & 0 \end{vmatrix} = -k \cdot f \cdot g$$

$$M = \frac{\Delta_M}{\Delta} = \frac{k^2}{m^2 + k^2}; \quad N = \frac{\Delta_N}{\Delta} = \frac{-k \cdot f \cdot g}{m^2 + k^2}$$

M va N ning qiymatlarini (10) tenglamaga qo'yamiz umumiy yechim

$$x_2 = \frac{k^2}{m^2 + k^2} \cdot \sin \beta - \frac{k \cdot f \cdot g}{m^2 + k^2} \cos \beta$$

$$x = x_1 + x_2 =$$

$$x = c_1 + c_2 e^{-\frac{k}{m}t} + \frac{k^2}{m^2 + k^2} \cdot \sin \beta - \frac{k \cdot f \cdot g}{m^2 + k^2} \cdot \cos \beta \quad (12)$$

(12) tenglamadagi S_1 va S_2 o'zgarmas qiymatlarini boshlang'ich kordinatasidan foydalanib topamiz.

$t = 0 \quad x = 0, \quad \dot{x} = 0$ bundan

$$\begin{cases} 0 = c_1 + c_2 - \frac{k \cdot f \cdot g}{m^2 + k^2} \\ 0 = -\frac{k}{m} c_2 + \frac{k^2}{m^2 + k^2} = 0 \end{cases}$$

$$c_2 = \frac{k \cdot m}{m^2 + k^2}$$


$$c_1 = \frac{k \cdot f \cdot g}{m^2 + k^2} - \frac{k \cdot m}{m^2 + k^2} = \frac{k(f \cdot g - m)}{m^2 + k^2}$$

Aniqlangan S_1 va S_2 qiymatlarini (11) tenglamaga qo'yamiz.


$$x = \frac{k(f \cdot g - m)}{m^2 + k^2} + \frac{k \cdot m}{m^2 + k^2} \cdot e^{-\frac{k}{m}t} + \frac{k^2}{m^2 + k^2} \cdot \sin \beta - \frac{k \cdot f \cdot g}{m^2 + k^2} \cos \beta \quad (13)$$

(13) tenglama jun tolasi oqimini elastik elementga o'rnatilgan quvurdagi harakatini ifodalaydi. Bu tenglamani Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlil qilamiz.

Quyidagi 7 va 8-rasmlardagi grafiklarda junning qiya panjara yuzasi ustida OX o'qi bo'ylab harakatini traektoriyalari keltirilgan. Jundagi mayda iflosliklardan ajratishda tebranish amplitudasining $A_3 = 0,5$ qiymatida hamda qiyalik burchagining $\beta_2 = 35^\circ$ qiymatlarida jundan yengil iflosliklarni ajralib pastga tushish traektoriyasini ko'rishimiz mumkin. Qiya tekislikdagi junning OX o'qi bo'yicha harakatidan junning massasidan yengil ifloslik massasini ajralishini titrashdagi amplitudasi ta'siridagi grafigini ko'rishimiz mumkin, massasi juda kichik yengil iflosliklarni jundan ajralishda qiyalik burchagi va amplitudasi muhim ahamiyatga ega.



7-rasm. Jun oqimining qiya listda OX o'qi bo'ylab titrashdagi harakatida amplitudasining turli xil $A_1 = 0,9$ $A_2 = 0,7$ $A_3 = 0,5$ qiymatlarida vaqtga bog'liqlik grafigi (1- yengil ifloslik, 2-jun)



8-rasm. Jun oqimining qiya listda OX o'qi bo'ylab titrashdagi harakatida qiyalik burchagining turli xil $\beta_1 = 25^\circ$ $\beta_2 = 35^\circ$ $\beta_3 = 45^\circ$ qiymatlarida vaqtga bog'liq grafigi (1-jun, 2- yengil ifloslik)

Vaqt bo'yicha o'zgaruvchan jun oqimining harakat differensial tenglamasini aniqlaymiz. Bunda bunkerga tushayotgan jun oqimiga ta'sir qiluvchi elastiklik kuchi va og'irlik kuchi natijasidagi differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m \cdot \ddot{y}_1 + C \cdot y_2 = C \cdot h - G \quad (14)$$

Bu erda: S-junning bikrlilik koeffitsienti, G-junning og'irlik kuchi, h-bunkerning balandligi, m-bunkerga tushayotgan junning massasi.

Bu differensial tenglamani massasiga bo'lib, quyidagi ifodani hosil qilamiz.

$$\ddot{y}_2 + \frac{c}{m} \cdot y_2 = \frac{c}{m} \cdot h - \frac{G}{m} \quad (15)$$

(15) differensial tenglamani umumiy yechimini quyidagicha izlaymiz

$$A \cdot \cos \sqrt{\frac{c}{m}}t + B \cdot \sin \sqrt{\frac{c}{m}}t + \frac{c \cdot h}{m \omega^2 - c} \cdot \cos \omega t + \left(\frac{G}{m} + h\right) \quad (16)$$

Boshlang'ich shartlardan foydalanib o'zgarmas A va B ning qiymatlarini aniqlaymiz


$$t = 0; y_2 = 0; \dot{y}_2 = 0; \quad (17)$$

$$A = \left(-\frac{c \cdot h}{m \cdot \omega^2 - c} + h + \frac{G}{m}\right) \quad B = 0 \quad (18)$$

aniqlangan o'zgarmas qiymatlarini (14) tenglikka qo'yib bunkerdagi jun qatlamini o'zgarishi haqidagi ifodasini aniqlaymiz.

$$y_2 = -\left(\frac{c \cdot h}{m \cdot \omega^2 - c} + h + \frac{G}{c}\right) \cdot \cos \sqrt{\frac{c}{m}}t + \frac{c \cdot h}{m \cdot \omega^2 - c} \cdot \cos \omega t + h + \frac{G}{c} \quad (19)$$

(19) harakat tenglamasidan arra tishli valiklar yordamida ilib olishdagi harakatini Maple dasturidan foydalanib, grafiklarda tahlil qilingan. Berilgan parametrlar: h=10 mm, S=0.05, m=15 kg, $\omega = 0,14$ айл / мин




9-rasm. Jun tolalarini bunkerdan ta'minlovchi valiklar yordamida uzatishda valiklarning burchak tezliklarini turli xil

$\omega_1 = 22$ айл / мин $\omega_2 = 18$ айл / мин
 $\omega_3 = 14$ айл / мин **qiymatlarida vaqtga**

bog'liqlik grafifi

Yuqoridagi 9 va 10-rasmlardagi grafiklar tahlilidan bunkerga tushayotgan jun oqimini ta'minlovchi valiklar yordamida silliq yuzali bosuvchi valiklarga uzluksiz



10-rasm. Jun tolalarini bunkerdan ta'minlovchi valiklar yordamida uzatishda bunkerdagi massalarini turli xil $m_1 = 15$ зр $m_2 = 25$ зр $m_3 = 35$ зр qiymatlarida vaqtga bog'liqlik grafifi

uzatishni ta'minlashda valiklarning burchak tezliklari $\omega_3 = 14 \text{ айл} / \text{мин}$ bo'lganida hamda bunkerdagi jun tolalarining $m_3 = 35 \text{ зр}$ teng massalarida etarli me'yorda ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda bir tekisda uzatilishini grafiklardan ko'rishimiz mumkin. Boshqa hollarda esa valiklarga o'ralib qolishi va bu orqali tiqilishlar yuzaga kelishi mumkinligi kuzatish mumkin.

Dissertatsiya ishining **“Jun tolasini tozalash uskunalarini asosiy parametrlarini asoslash”** deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida tajribalarni o'tkazish metodik uslublari va tajriba natijalari bayon qilingan. Titish jarayoni jun tolalarini begona aralashma va iflosliklardan bo'laklarga ajratish, yumshatish va tozalash maqsadida amalga oshiriladi. Titish samaradorligi junni yumshatish darajasi, jipslanib qolgan junlar massasining kamayishi va junni iflosliklardan tozalash darajasi bilan baholanadi.

Jun tolasining titilish darajasi titilmagan jun tutamlarining vazni bilan ham baholanadi, og'irligi past bo'lsa, tolali material shunchalik titiladi. Jun tolasini titilganlik darajasini aniqlashning yana bir usuli mavjud: Uskunadan chiqqan jun bo'laklari ikkiga: titilgan jun va yaxshi titilmagan jun tolalariga ajratiladi. Solishtirish va taqqoslash yordamida titilganlik ko'rsatkichi aniqlanadi.

“Hisori mayin jun” MChJ korxonasi o'tkazilgan tajribada qorako'l zotli qo'y, hisori zotli qo'y va jaydari qo'y junlari tarkibidagi begona aralashmalar miqdori organoleptik usulda namunaga solishtirish orqali o'rganildi va tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval


Mahalliy qo'y juni tarkibidagi ifloslik aralashmalar miqdori

Jun turi	Jun tarkibidagi o'rtacha ifloslik, %			Tola	Namlik
	O'simlik aralashmalari	Mineral aralashmalar	Yog' ter		
Qorako'l zotli qo'y juni	3,4	4,5-14,1	11,5-13	57-79	10,6
Hisori zotli qo'y juni	3,4-4,7	6,6-15,8	11,2-12,7	54-74	7,0
Jaydari qo'y juni	3,5	5,7	9,6-10,3	55-77	8,2

Mahalliy dag'al jun tarkibidagi ifloslikning miqdori olimlar tomonidan o'rganilgan va begona aralashmalar ulushi 32-47% bo'lishi aniqlangan.

Tajriba vaqtida xomashyo bunker qiyaligi uskunaga nisbatan 20°, 25°, 35°, 45° va 60° gradus qiyaliklarda o'rnatilib sinovdan o'tkazildi. Xomashyo bunkeri 20° va 25° gradus qilib o'rnatilganda transportyordan tushgan tola harakati past, tola yig'ilib qolish, tola uzatish me'yori buzilishi kabi muammolar kuzatildi. Xomashyo bunker qiyaligi 45° va 60° gradus qiyalikda o'rnatilgan vaqtda tola harakatini tezligi sababli tiqilib qolishi, yengil iflosliklarni ajralmay ishchi kamera o'tib ketish holati

kuzatildi. Bunker asosi 35° gradus qiyalikda o'rnatilgan vaqtda transportyordan kelayotgan tola harakati me'yorlashdi, tola tiqilishi, uzatishdagi uzilish, yengil iflosliklarni ajralmasdan ishchi kameraga o'tib ketish muammolari bartaraf qilindi va shu holatda titish uskunasi o'rnatildi. Mavjud uskuna valigining diametri 100 mm, tishlar soni 12 ta, valikka joylashishi 90° gradus, aylanish tezligi esa 25-30 r/min. Tajribada 2BT-150Sh uskunasi ta'minlovchi valigining aylanishlar soni katta, diametri kichkina, tolani olib ketish yuzasi kamligi sababli, jun tolasini o'ralib qolish kabi jiddiy kamchiliklar uchradi (11a-rasm).



11-rasm. a) mavjud ta'minlovchi valik; b) taklif etilayotgan ta'minlovchi valik.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ta'minlovchi valik diametri ikki baravarga kattalashtirildi, natijada tolani olib ketish maydoni kengayib tishlar soni 28 taga oshdi. Ta'minlovchi valiklar uskunaga nisbatan qiya o'rnatilishi hisobiga tishlar ham valikka nisbatan 40° gradus qilib o'rnatilgan (11 b-rasm).

“Hisori mayin jun” MChJ korxonasi junning ko'rsatkichlari GOST 26588-85 standartidan foydalanib amalga oshirildi. Ushbu standartga muvofiq kuzgi va bahorgi qirqimda olingan jun tolalaridan tajribalar o'tkazildi. Kuzgi qirqim jun tolasida ifloslik miqdori 27% ni, bahorgi qirqimda ifloslik miqdori 32% ni tashkil qiladi. 2BT-150Sh titish-tozalash uskunasi ifloslik aralashmalardan tozalash samaradorligi 11-14% ni tashkil qiladi.

O'tkazilgan tajribada ta'minlovchi valiklar orasidagi tirqish 4 mm, 5 mm, 6 mm, 7 mm, 8 mm, 10 mm, 12 mm, 14 mm, 16 mm va 18 mm masofada, chiziqli tezligi 0,2 m/s; 0,24 m/s; 0,3 m/s da o'tkazildi. Har bir tajriba 1 soat davom etdi

Ta'minlovchi valiklarning tirqishi va chiziqli zichligi ortishi uskunaning ish unumdorligi oshishiga sabab bo'ladi, ammo me'yordan ortiq oshirish tozalash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'minlovchi valiklarning chiziqli tezligi 0,24 m/s bo'lganda, uskunaning ish unumdorligi soatiga 762 kg/h ni tashkil qildi. Kuzgi va bahorgi qirqimda jun tolasini uchun tozalash samaradorligi 17,9 % ni tashkil qildi.

Ta'minlovchi valiklarni aylanishlar soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$n = \frac{30v}{\pi R} = \frac{30 \cdot 0,24}{3,14 \cdot 45 \cdot 10^{-3}} = 50 \text{ r/min} \quad (20)$$

Kichkina ta'minlovchi valiklarni chiziqli tezligi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$v = \frac{\pi \cdot R}{30} = \frac{3,14 \cdot 42 \cdot 0,045}{30} = 0,24 \text{ m/s} \quad (21)$$

Aylanishlar chastotasini aniqlashda bitta uskuna uchun tolali mahsulotlarni tozalash samaradorligi formulasidan foydalanamiz:

$$n_{dv} = n_{kich} \cdot u_z \cdot u_r \quad (22)$$

Bu yerda: n_{dv} – dvigatelning aylanishlar soni;

n_{kich} – kichkina ta'minlovchi valikning aylanishlar soni;

u_z – zanjirli uzatmaning uzatishlar soni;

u_r – reduktorning uzatishlar soni.

Uskunaning unumdorlik ko'rsatkichini quyidagi formula asosida aniqlaymiz:

$$Q = v \cdot h \cdot l \cdot \rho \cdot 3600;$$

va

$$Q = 0,24 \cdot 42 \cdot 10^{-3} \cdot 0,42 \cdot 50 \cdot 3600 = 762 \text{ kg/h}$$

Korxonaga keltirilgan kuzgi qirqimdagi saralangan jun tolasida 10 marotaba tajriba o'tkazildi. Transportyor tezligi, xomashyo bunkerida junni harakatlanishi, ta'minlovchi valiklar orasidagi texnologik tirqish, jun tolasining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolgan holda uskunaga uzluksiz uzatish ta'siri tajriba orqali aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Kuzgi qirqimdagi jun tolasida o'tkazilgan tajriba natijalari

№	Ta'minlash valiklari orasidagi texnologik tirqish, mm.	Ta'minlash valigining chiziqli tezligi, v					
		$v=0,2$		$v=0,24$		$v=0,3$	
		Unumdorlik, kg/h	Tozalash samaradorligi, %	Unumdorlik, kg/h	Tozalash samaradorligi, %	Unumdorlik, kg/h	Tozalash samaradorligi, %
1	4	520	15,8	535	16,4	545	12,3
2	5	525	15,0	565	16,0	560	11,5
3	6	530	14,2	645	16,2	575	10,7
4	7	545	14,7	710	16,7	605	10,9
5	8	560	14,9	762	17,8	625	11,2
6	10	570	13,6	782	16,3	680	10,6
7	12	605	13,2	810	14,9	740	10,0

Mahalliy jun tolasining kuzgi va bahorgi qirqimidan 5000 g namuna olinib tarkibidagi iflosliklar miqdori o'rganildi. Kuzgi qirqimda 27,0%, bahorgi qirqimda 32,0% ifloslik miqdori aniqlandi. Qoziqchali barabanlardagi tishlar soni va qatori oshishini hisobiga tozalash samaradorligi kuzgida 13,9% dan 20,2% ga, bahorgi qirqimda 11,7% dan 17,9% ga oshdi (4-jadval).

**Titish-tozalash jarayonida jun tolasini tozalash
aralashmalarining ulushi**

Mahalliy qo‘y juni	Umumiy ifloslik aralashmalar miqdori, %				
	Jun tarkibidagi ifloslik miqdori, %	Titish jarayonida jun tolasini tozalash miqdori, %		Titish jarayonidan keyingi jun tolasini tarkibidagi ifloslik miqdori, %	
		Mavjud uskuna	Taklif etilayotgan uskuna	Mavjud uskuna	Taklif etilayotgan uskuna
Kuzgi	27,0	13,7	20,2	13,1	6,8
Bahorgi	32,0	11,2	17,9	20,3	14,1

O‘tkazilgan tajribalar natijasida titish-tozalash uskunasi ishchi kamerasi, qoziqchali barabanlar, kolosnikli panjara va ular orasidagi tirqishlar o‘rganildi, kamchiliklari tahlil qilindi. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida ikki barabanli titish-tozalash uskunalarini takomillashtirish ustida tadqiqot olib borildi.

Qoziqchali baraban tola tutamini mexanik usulda kolosnikli panjara ustida olib o‘tishi, toлага zarb bilan urilishi natijasida mayda bo‘lakchalarga ajratadi va iflosliklardan tozalaydi. Titish-tozalash uskunasi ikki barabanli bo‘lib, uskunaga gorizontal tarzida yonma-yon qilib, val va qistirmalar yordamida o‘rnatilgan. Baraban uzunligi 1000 mm, tishlar joylashuvi 12 qator va umumiy soni 66 ta qoziqchalar shaxmat ko‘rinishida barabanga nisbatan 90° gradus burchak ostida o‘rnatilgan. Qoziqchalar diametri 15 mm, uzunligi 80 mm ga teng. Taklif etilayotgan takomillashtirilgan qoziqchali barabanning umumiy ko‘rinishi 12-rasmda keltirilgan, ishchi kamerasi kengligi 500-520 mm, qoziqchali baraban diametri 460 mm (12-rasm).



12-rasm. Takomillashtirilgan qoziqchali baraban umumiy ko‘rinishi

Titish va tozalash samaradorligini oshirish uchun qoziqchali baraban qoziqchalari soni ko'paytirilgan. Mahalliy jun tolasini yuvish uchun turli sirt aktiv moddalar va sovun eritmalaridan foydalanildi. Yuvish sifati tola uzunligini saqlanib qolishi va ho'llanuvchanligining ortishi bilan baholanadi.

Yuvish jarayoniga nafaqat sirt aktiv modda tabiati, balki eritma pH muhiti ham ta'sir etgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun jarayonga pH ta'siri o'rganildi. Yuvish eritmasi muhiti pH 9 bo'lganida tola uzunligi va uning ho'llanuvchanligi o'zaro mutanosib ekanligini qo'rishimiz mumkin. pH qiymati 10 dan ortganida esa tolaning ho'llanuvchanligi yaxshi natija bermoqda, ammo uning o'lchami keskin kamayadi, shu bilan birga organoleptik tahlil bo'yicha tolaning mo'rtlashgani ham seziladi. Tajribalarda sirt aktiv moddalar sifatida anionaktiv SAM, noionogen SAM - prevotsel V-OF lardan foydalanildi. Sirt aktiv modda turlarini jun tolasini yuvish sifatiga ta'siri bo'yicha olingan tadqiqot o'tkazilgan.

Soda ta'sirida suv yumshaydi, tolaning bo'kishi yaxshilanadi, natijada chiqindilardan tez tozalanadi, kislotali yog'larni neytrallaydi. Bunda eritmada ishqoriy agent konsentratsiyasini kamayib borishi natijasida tola tarkibidagi yog'-mum moddalarni chiqishi ham kamayadi. Shuning uchun soda konsentratsiyasining optimal miqdori aniqlandi.

5-jadval

Na₂CO₃ konsentratsiyasining jun tolalarini yuvish sifatiga ta'siri

Yuvish eritmasi tarkibi	Na ₂ CO ₃ konsentratsiyasi, g/l	Dastlabki jun massasi, g	Junni yuvishdan keyingi massasi, g	Farqi, %
Natriy karbonat Vodorod peroksid Sirt aktiv modda Sovun	2	3,0	2,65	11,6
	4		2,59	13,6
	6		2,59	13,6
	8		2,57	14,3

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sovun konsentratsiyasi 2 g/l bo'lganida jarayon davomiyligini 40 minutda ushlab turgan holda tolaning yuqori ho'llanuvchanligini ta'minlash mumkinligi aniqlandi. Ma'lumki, yog' mum moddalarni tola tarkibidan chiqarishda harorat alohida ahamiyatga ega. Jarayon harorati ayniqsa jun tolasining kirishuvchanligiga, ya'ni o'lchamining o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun jun tolalarini yuvish sifatiga va o'lchamiga jarayon harorati ta'siri o'rganildi.

Ushbu 6-jadvaldan haroratning jarayonga ta'siri yaqqol ko'rinadi, ya'ni harorat 65-60°C bo'lganda yuvish sifati ancha yaxshilanadi. Yuvish jarayonida haroratni ortishi bilan yuvish samaradorligi ortishi bilan bir qatorda tolaning sifati yomonlashishiga ham olib keladi. Eritma muhitini ushlab turish, iflosliklarning yuviluvchanligini oshirish hamda tolaning ho'llanuvchanligini oshirish maqsadida

yuvish eritmasi tarkibiga sovun eritmasi qo'shildi. Tajriba natijasida sovun eritmasi konsentratsiyasining tola ho'llanuvchanligiga ta'siri 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Jun tolasini yuvish sifatiga harorat ta'siri

Yuvish vannasi tarkibi	Harorat, °C	Jarayon davomiyligi, min.	Dastlabki jun massasi, g	Junni yuvishdan keyingi massasi, g
Natriy karbonat Vodorod peroksid Sirt aktiv modda Sovun	35-40	25	3,0	2,66
	45-50	30		2,67
	55-60	35		2,65
	60-65	40		2,64

